

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 24-oktabr, № 217 (8840) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

KO‘P QIRRALI HAMKORLIK YANADA MUSTAHKAMLANADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 23-oktabr kuni BRICS birlashmasi davlatlarining sammitida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Qozon shahriga keldi.





Aeroportda davlatimiz rahbarini Tatariston Respublikasi Raisi Rustam Minnixanov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Davlatimiz rahbari Qozon shahriga tashrifi doirasida dastlab Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Uchrashuvda O‘zbekiston – Hindiston strategik sheriklik munosabatlari va ko‘p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Yuqori texnologiyalar, sun’iy intellekt, sanoat, energetika, farmatsevtika, transport kommunikatsiyalari bo‘yicha dastur va loyihalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Joriy yilda Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi va biznes forumini o‘tkazish, shuningdek, sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha o‘rta muddatli dastur qabul qilishga kelishib olindi.

Mamlakatlarimizda Madaniyat va kino kunlarini, tibbiyot va sport sohalarida hamda yoshlar ishtirokida, shu jumladan, yoshlarning parlament tashkilotlari doirasida qo‘shma tadbirlar o‘tkazish taklifi bildirildi.

Yetakchilar bo‘lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini ham muhokama qildilar.

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an bilan uchrashuvda O‘zbekiston – Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish bo‘yicha dolzarb masalalar atroflicha ko‘rib chiqildi.

Ikki davlat rahbarlari siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy va gumanitar sohalardagi ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish muhimligini ta’kidladilar.

Prezidentlar faol muloqotlar va samarali almashinuvlarni davom ettirish zarurligini qayd etdilar.

Geologiya va mineral resurslarni qazib chiqarish, elektrotexnika, mashinasozlik, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa sohalarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Qo‘shma madaniy-gumanitar tadbirlarni muntazam o‘tkazib borish zarurligi ta’kidlandi.

Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy kun tartibining muhim jihatlari yuzasidan ham fikr almashdilar.

BRIKS sammiti tadbirlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev birlashmaning Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Rusefni qabul qildi.

Ushbu nufuzli ko‘p tomonlama moliyaviy institut bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi.

Ta’lim va texnologik rivojlanish sohasidagi dastur va loyihalar, ijtimoiy sohani qo‘llab-quvvatlash, sanoat, infratuzilma va logistikani modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, energetika va kommunal tarmoqlar sheriklikning istiqbolli yo‘nalishlari sifatida qayd etildi.

Hamkorlik bo‘yicha aniq loyihalarni tayyorlash uchun qo‘shma ekspertlar guruhini tuzishga kelishib olindi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Sberbank” prezidenti va boshqaruvi raisi German Grefni qabul qildi.

Uchrashuvda raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar va ta’lim sohalarida o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Toshkent shahrida raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali mutaxassislar va muhandislar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan “Maktab 21” ta’lim muassasasining ikkinchi kampusi ish boshlaganidan mamnuniyat bildirildi.

Shuningdek, bank sektori va shahar infratuzilmasini boshqarishda samarali raqamli yechimlarni joriy etish bo‘yicha muhim qo‘shma loyihalar qayd etildi.

Kunning ikkinchi yarmida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BRIKS sammitida ishtirok etayotgan delegatsiyalar rahbarlarini qutlash marosimida qatnashdi.

“Kazan Ekspo” xalqaro ko‘rgazmalar markazida davlatimiz rahbarini Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin kutib oldi.

Marosimda bir qator mamlakatlarning davlat va hukumatlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ham ishtirok etdi.

Tadbirdan so‘ng tantanali qabul marosimi o‘tkazildi.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev BRIKS sammiti doirasida Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin va Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi bilan suhbatlar o‘tkazdi.

Ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalar va oliy darajada erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi muhokama qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozon shahriga tashrifning birinchi kunida Tatariston Respublikasi Raisi Rustam Minnixanov bilan ham uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston hududlarining Tatariston bilan o‘zaro manfaatli va ko‘p qirrali hamkorligini yanada kuchaytirish masalalari muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda yetakchi korxonalarning sanoat kooperatsiyasi va faol gumanitar almashinuv o‘zining amaliy natijalarini berayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Faol muloqotlar va o‘zaro tashriflarni davom ettirish, O‘zbekiston hududida qo‘shma iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatini kengaytirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Qozon shahriga tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Tatariston Respublikasining davlat mukofoti – “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Yuksak mukofotni davlatimiz rahbariga Tatariston Raisi Rustam Minnixanov tantanali ravishda topshirdi.

Prezidentimiz ushbu orden bilan O‘zbekiston va Tatariston o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun mukofotlandi.

Mamlakatimiz yetakchisi Tatariston rahbariga mukofot uchun samimiy minnatdorlik bildirib, so‘nggi yillarda o‘zaro hamkorlikda yuqori natijalarga erishilganini mamnuniyat bilan qayd etdi hamda Tatariston xalqiga ezgu tilaklarini bildirdi.

24-oktabr kuni O‘zbekiston yetakchisi “BRIKS plyus” formatidagi sammitning yalpi sessiyasida nutq so‘zlaydi.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 12-martda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 21-sentabrda ma’qullangan

Keyingi yillarda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligiga bozor mexanizmlarini joriy etish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek suvdan tejamli va samarali foydalanish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga quyi bo‘g‘inda suv bilan ta’minlovchi tashkilotlar va suv iste’molchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solgan holda, suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish, shuningdek paxta xomashyosi va don yetishtirishdagi davlat buyurtmasi amaliyotini qonunchilik darajasida bekor qilish yo‘li bilan davlatning qishloq xo‘jaligi sohasini boshqarishdagi rolini yanada kamaytirish zaruriyati mavjud.

(Davomi 2-betda).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik to‘qqizinchi yalpi majlisi to‘g‘risida

AXBOROT

2024-yil 23-oktabr kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik to‘qqizinchi yalpi majlisi o‘z ishini boshladi.



Unda Senat, hukumat a’zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a’zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Yalpi majlisni Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning “YouTube” tarmog‘idagi sahifasi orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritib borildi.

Oliy Majlis Senatining ellik to‘qqizinchi yalpi majlisida dastlab “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi qonun ko‘rib chiqildi.

Qonun bilan telekommunikatsiya bozori rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasi va amaliyoti chuqur tahlil qilindi. Unda telekommunikatsiya bozorini tartibga soluvchi regulyator va ushbu bozorni rivojlantirish siyosatini olib boruvchi davlat organlarining vazifalari aniq belgilab qo‘yilmoqda.

Jumladan, qonunda tartibga soluvchi organga telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni litsenziyalash, ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirish, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda yoki favqulodda holatlarda telekommunikatsiya infratuzilmalaridan ustuvor foydalanish hamda ularning faoliyatini tiklash va rivojlantirish, operatorlar va provayderlarning faoliyat ko‘rsatishi uchun teng hamda adolatli raqobat muhitini ta’minlash vakolatlari berilmoqda.

(Davomi 2-betda).

O‘zbekiston tajribasi xalqaro ekspertlar tomonidan e’tirof etildi

Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasida doimiy asosda ishlovchi senator Gulnora Ma’rufova O‘zbekiston delegatsiyasi tarkibida Shveysariyaning Jeneva shahrida bo‘lib o‘tgan “YEIK mintaqasida gender tenglikka erishishni jadallashtirish bo‘yicha majburiyatlarni baholash” mavzuiga bag‘ishlangan “Pekin+30” mintaqaviy tahlil uchrashuvida qatnashdi.

Uchrashuv

Unda xotin-qizlarning iqtisodiy huquqlarini kafolatlash, qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish, ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonliklarning har qanday ko‘rinishiga qarshi kurashishga oid masalalar muhokama etildi.

O‘zbekiston delegatsiyasi gender tenglikka erishish, ayollar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va siyosiy jarayonlardagi rolini oshirish bo‘yicha o‘z tajribasi haqidagi axborotni taqdim qildi. Yurtimizning ushbu yo‘nalishdagi tajribasi xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholandi va mintaqadagi ilg‘or tajribalardan biri sifatida e’tirof etildi.

Tadbir doirasida delegatsiyamiz “BMT-ayollar” tuzilmasi ijrochi direktorining normativ qo‘llab-quvvatlash, BMT tizimini muvofiqlashtirish va dastur natijalari bo‘yicha o‘rinbosari N. Gumbonzvanda bilan uchrashdi.

Muloqot asnosida u O‘zbekistonda ayollar huquqlari sohasida sezilarli yutuqlarga erishilayotganini ta’kidladi hamda mamlakatni ayollar huquqlarini mintaqaviy va global miqyosda himoya qilishni ilgari surishni davom ettirishga chaqirdi.

Tadbir yakuni bo‘yicha Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi majburiyatlarini mintaqada amalga oshirishni yanada jadallashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

“Xalq so‘zi”.

SAYLOV – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo‘yicha saylov kampaniyasi doirasida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti davom etmoqda. Bugungi sonda O‘zbekiston “Adolat” SDP nomidan “Yuzma-yuz muloqotlar xayrixohlarimiz safini kengaytirmoqda” sarlavhali maqola e’lon qilinmoqda.

3-sahifaga qarang.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 24-oktabr

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Mazkur Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining bir qator qonunlariga O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi irrigatsiya bo‘limlari hamda maxsus xizmatlar negizida tashkil etilgan “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalarining vazifalari va vakolatlarini, shuningdek qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv olish limitlari xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan tasdiqlanishini nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Bundan tashqari tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetkazib berilishini ta’minlash bo‘yicha fermer xo‘jaliklarining majburiyati va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga suv yetkazib berish xizmatlari uchun to‘lovlar bekor qilinmoqda.

Ushbu Qonun suv resurslarini samarali boshqarish tizimi joriy etilishiga, qishloq xo‘jaligida erkin raqobatni ta’minlashga hamda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning manfaatdorligini oshirishga xizmat qiladi.

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-mayda qabul qilingan **“Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”**gi 837–XII-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, № 5, 221-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 4–5, 126-modda; 1998-yil, № 9, 181-modda; 2000-yil, № 7–8, 217-modda; 2001-yil, № 1–2, 23-modda; 2004-yil, № 1–2, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 12, 604-modda; 2009-yil, № 12, 472-modda; 2011-yil, № 1, 1-modda, № 9, 247-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2016-yil, № 12, 383-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda, № 7, 431-modda; 2019-yil, № 5, 261-modda, № 11, 791-modda; 2020-yil, № 9, 539-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 968-modda, № 11, 1065-modda; 2022-yil, № 11, 1061-modda; 2023-yil, № 11, 923-modda; 2024-yil, № 1, 7-modda) quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

1) **2^1-moddaning**:

o‘n beshinchi xatboshisidagi “tumanlarning irrigatsiya bo‘limlari” degan so‘zlar “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari» degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

o‘n to‘qqizinchi xatboshisi “suv yetkazib berish bo‘yicha xizmatlar” degan so‘zlardan keyin “(bundan suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv yetkazib berish xizmatlari mustasno)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

2) **7-modda**:

quyidagi mazmundagi **to‘rtinchi xatboshi** bilan to‘ldirilsin:

“suv iste’molchilarining qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv olish limitlarini ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda tasdiqlash”;

to‘rtinchi – sakkizinchi xatboshilari tegishincha **beshinchi – to‘qqizinchi xatboshilar** deb hisoblansin;

3) **27-modda uchinchi qismining**:

to‘rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“suv iste’molchilari uyushmalariga, shuningdek boshqa suvdan foydalanuvchilarga va suv iste’molchilariga – tuman ahamiyatiga molik suv obyektlaridan, shu jumladan qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv obyektlaridan «Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari tomonidan beriladi»;

beshinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

4) **30-moddaning**:

uchinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda boshqa suv iste’molchilarining qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv olish limitlari tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va hududiy qishloq xo‘jaligi boshqarmalari tomonidan ishlab chiqiladi hamda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi”;

oltinchi qismi “suvni yetkazib berish bo‘yicha xizmatlari” degan so‘zlardan keyin “(bundan suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv yetkazib berish xizmatlari mustasno)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

5) **35^1-modda birinchi qismining to‘qqizinchi xatboshisi** “suvni yetkazib berish bo‘yicha xizmatlar” degan so‘zlardan keyin “(bundan suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv yetkazib berish xizmatlari mustasno)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

6) **48-modda**:

uchinchi va **to‘rtinchi qismlari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Suv iste’moli rejalari «Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi. “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari suv iste’moli rejalarini umumlashtiradi va suvdan foydalanish rejalarini tuzadi.

“Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalarining suvdan foydalanish rejalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari tomonidan umumlashtiriladi»;

beshinchi qismining:

ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo‘jaligi bo‘limi bilan kelishilgan holda – suv iste’molchilari bo‘yicha»;

uchinchi xatboshisidagi “tuman (Quvasoy shahar) irrigatsiya bo‘limi bo‘yicha” degan so‘zlar “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi bo‘yicha» degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

7) **53-moddaning matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Jamoa bog‘lari, tokzorlari, ekinzorlarini va tomorqa yer uchastkalarini suv bilan ta’minlash belgilangan tartibda «Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari tomonidan suv yetkazib berish va suv xo‘jaligi xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomaga asosan amalga oshiriladi.

Fuqarolarning ekinzorlarini va tomorqa yer uchastkalarini sug‘orish uchun suv resurslarini ajratish xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining suv olish limitlarida nazarda tutiladi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari fuqarolarning ekinzorlarni va tomorqa yer uchastkalarini sug‘orish uchun suvga bo‘lgan ehtiyojlarini umumlashtiradi, suv yetkazib berish va suv xo‘jaligi xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risida shartnomalar tuzadi, ular o‘rtasidagi suvni iste’mol qilish tartibini belgilaydi, shuningdek sug‘orish tarmoqlarida ta’mirlash-tiklash ishlarini tashkil etadi»;

8) **54-moddaning birinchi qismidagi** “suv iste’molchilari uyushmalari hamda” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

9) **82-moddaning**:

ikkinchi qismidagi “Suv iste’molchilari uyushmalari, shuningdek boshqa suvdan foydalanuvchilarning” degan so‘zlar “Suvdan foydalanuvchilarning” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi qismidagi “suv iste’molchilari uyushmalari hamda boshqa” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

10) **106-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi** “suvni yetkazib berish bo‘yicha xizmatlar” degan so‘zlardan keyin “(bundan suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv yetkazib berish xizmatlari mustasno)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

2-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan **“Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”**gi 602–I-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustda qabul qilingan 662–II-sonli Qonuni tahririda) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, № 9, 162-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 3, 119-modda; 2007-yil, № 12, 608-modda; 2008-yil, № 12, 640-modda; 2009-yil, № 12, 472-modda; 2011-yil, № 9, 248-modda; 2012-yil, № 9/1, 238-modda; 2013-yil, № 10, 263-modda; 2015-yil, № 8, 312-modda; 2016-yil, № 12, 383, 385-moddalar; 2018-yil, № 4, 224-modda, № 12, 781-modda; 2019-yil, № 4, 199-modda, № 12, 886-modda; 2020-yil, № 1, 2-modda, № 9, 540-modda, № 11, 652-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 6, 570-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) **6-moddaning ikkinchi qismidagi** “belgilangan tartibda” degan so‘zlar “ushbu Qonunning 11-moddasida belgilangan tartibda” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) **15-moddaning matnidagi** “ularga xizmat ko‘rsatuvchi suv iste’molchilari uyushmalari tomonidan belgilanadigan” degan so‘zlar “tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va hududiy qishloq xo‘jaligi boshqarmalari tomonidan ishlab chiqiladigan hamda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

3) **17-modda birinchi qismining**:

sakkizinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

to‘qqizinchi – o‘n sakkizinchi xatboshilari tegishincha **sakkizinchi – o‘n yettinchi xatboshilar** deb hisoblansin;

qishloq xo‘jaligi va **o‘ninchi xatboshilari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«suvni tejash, suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ko‘rishi;

suv resurslaridan “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi bilan tuzilgan suv yetkazib berish va suv xo‘jaligi xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomaga binoan foydalanishi, shuningdek fermerlararo ichki sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlarini, ulardagi inshootlarni ta’mirlash hamda tiklashda ishtirok etishi, ularni texnik jihatdan soz holatda saqlashi, ulardan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya etishi»;

4) **24-moddaning birinchi qismidagi** “shu jumladan davlat ehtiyojlari uchun realizatsiya qilish” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

5) **30-moddaning matnidagi** “davlat ehtiyojlari uchun mahsulot realizatsiya qilish shartnoma majburiyatlari bajarilmagan yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

6) **35-moddaning birinchi qismidagi** “tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsuloti nazarda tutilgan hajmlarda yetkazib berilishini ta’minlash bo‘yicha, shuningdek” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

3-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-mayda qabul qilingan **“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”**gi 69–II-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-mayda qabul qilingan O‘RQ–328-sonli Qonuni tahririda) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012-yil, № 5, 133-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 12, 341, 343-moddalar; 2015-yil, № 8, 312-modda, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 12, 384, 385-moddalar; 2018-yil, № 12, 781-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda, № 2, 47-modda, № 3, 166-modda, № 12, 886-modda; 2020-yil, № 1, 2-modda, № 11, 652-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 3, 213-modda, № 6, 577-modda; 2023-yil, № 11, 923-modda) **28-moddasining birinchi qismidagi** “ularga xizmat ko‘rsatuvchi suv iste’molchilari uyushmalari tomonidan belgilanadigan” degan so‘zlar “tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va hududiy qishloq xo‘jaligi boshqarmalari tomonidan ishlab chiqiladigan hamda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan O‘RQ–360-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, 12-songa 1-ilova; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 10, 605-modda, № 12, 772-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda, № 7, 431, 433-moddalar, № 12, 783-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda, № 5, 265-modda, № 8, 470-modda, № 9, 588-modda, № 11, 791-modda, № 12, 884, 891-moddalar; 2020-yil, № 3, 203-modda, № 11, 652-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 7, 13-moddalar, 4-songa ilova, № 8, 803, 804-moddalar, № 10, 973-modda, № 12, 1198-modda; 2022-yil, № 5, 464-modda, № 6, 577-modda; 2023-yil, № 4, 272-modda, № 11, 923-modda) **72-moddasi 2-bandining ikkinchi xatboshisidagi** “irrigatsiya tizimlarining havza boshqarmalari huzuridagi tumanlar (Quvasoy shahri) irrigatsiya bo‘limlarini” degan so‘zlar “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalarini» degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 1-aprelda qabul qilingan **“Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”**gi O‘RQ–680-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 4, 286-modda; 2022-yil, № 11, 1061-modda; 2023-yil, № 11, 919-modda) **11-moddasining birinchi qismidagi** “unga xizmat ko‘rsatuvchi suv iste’molchilari uyushmasi tomonidan belgilanadigan” degan so‘zlar “tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va hududiy qishloq xo‘jaligi boshqarmalari tomonidan ishlab chiqiladigan hamda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

7-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

8-modda. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining
Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 22-oktabr
№ O‘RQ–981

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining
ellik to‘qqizinchi yalpi majlisi to‘g‘risida

AXBOROT

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Shuningdek, tartibga soluvchi organning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlari talablari barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy etib belgilab qo‘yilmoqda.

Qonunning qabul qilinishi tadbirkorlik subyektlariga yengillik berish bilan birga hukumatning iqtisodiyot va jamiyatni raqamlashtirish bo‘yicha strategik dasturining muhim qismi bo‘lgan telekommunikatsiya sektorining barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Qonun senatorlar tomonidan ma’qullandi.

So‘ngra “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi qonun muhokama qilindi.

Mazkur qonun yangilangan Konstitutsiyaga mos ravishda mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni to‘laqonli ta’minlash va kuchaytirishni nazarda tutuvchi bir qator o‘zgartirishlarni o‘z ichiga olgan.

Xususan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlis palatalariga va Vazirlar Mahkamasiga inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar ko‘rishga qaratilgan maxsus ma’ruzalar taqdim etishi belgilanmoqda.

Qonun bilan Ombudsmanning qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish huquqi joriy etilmoqda.

Shuningdek, Ombudsman va uning o‘rinbosari vakolatlari, daxlsizligining qo‘shimcha kafolatlari ham joriy etilib, ularga yuklatilgan vazifalarning muammosiz va samarali bajarilishi qonunda mustahkamlanmoqda.

Qonunda saylanish kuni o‘ttiz yoshga to‘lgan, kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi Ombudsman lavozimiga saylanishi mumkinligi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, qonunda jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalari hududida “Ombudsman qutisi” tushunchasi kiritilib, unga ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning murojaat qilishining huquqiy mexanizmi belgilanmoqda.

Ushbu qonunning qabul qilinishi Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman) institutining mustaqil milliy institut sifatidagi ahamiyatini yanada oshirib, Ombudsman faoliyatining institutsional asoslarini takomillashtiradi.

Uning inson huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta’minlash borasidagi vakolatlari kengayishiga va hududiy vakilliklari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma’qullandi.

Bundan tashqari, yalpi majlisda “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun ko‘rib chiqildi.

Qonun bilan Soliq kodeksiga yuqori barqarorlik reytingiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari uchun rag‘batlantirish choralari joriy etilishini nazarda tutuvchi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Kodeksga tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tushunchasi kiritilmoqda.

Yuqori barqarorlik reytingiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan soliqlar bo‘yicha (bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i mustasno) ortiqcha to‘langan summani qaytarish uch kunlik muddatda amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi bo‘yicha “AAA” toifadagi tadbirkorlik subyektlariga nisbatan esa soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi (bundan jinoiy ishlar doirasida o‘tkaziladigan tekshiruvlar mustasno).

Mazkur toifadagi tadbirkorlik subyektlariga qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash kameral soliq tekshiruvidan o‘tkazilmasdan bir kunlik muddatda amalga oshiriladi.

Mazkur qonun soliqlarni o‘z vaqtida to‘layotgan va qonunchilik talablariga muvofiq faoliyatni amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga hamda ularni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Qizg‘in muhokamadan so‘ng qonun senatorlar tomonidan ma’qullandi.

Shuningdek, Senatning yalpi majlisida “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 483-moddasiga ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishga qaratilgan qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun muhokama qilindi.

Mamlakatimizda ipakchilik sohasini yanada rivojlantirish, tutzorlarni tashkil etish va ipak qurtini boqish orqali aholi bandligini ta’minlash hamda daromadlarini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Qishloq joylarda aholi bandligini ta’minlashda muhim tarmoqlardan biri hisoblangan pillachilikda izchil islohotlar amalga oshirilib, bugungi kunda respublikamizda pillani qayta ishlash, ipak qurti urug‘chiligi va tutchilik xo‘jaliklarining faoliyati yo‘lga qo‘yilgan, shuningdek, sohada 108 ming doimiy va



Акмал МУҲАММАДОВ олган сурат.

1 milliondan ortiq mavsumiy ishchilarning bandligi ta’minlanmoqda.

Soliq kodeksining 483-moddasiga 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda jismoniy shaxslarning uy sharoitida tirik pilla yetishtirish (kasanachilik) faoliyatidan olingan daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod qilinishini nazarda tutuvchi qo‘shimcha kiritilmoqda.

Qonunga ko‘ra pilla yetishtiruvchi yuridik shaxslarning uy sharoitida pilla yetishtiruvchi kasanachilar mehnatiga haq to‘lashga yo‘naltiriladigan mablag‘lari hamda bo‘shagan mablag‘larni kasanachilarni moddiy rag‘batlantirishga yo‘naltirish sharti bilan ijtimoiy soliqdan ozod qilinadi.

Qonunda pilla yetishtirish sohasida ozuqa bazasi sifatida foydalaniladigan tutzorlar bilan band bo‘lgan yer uchastkalari uchun yer solig‘i xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga nisbatan 0,1 koeffitsiyent qo‘llanilgan holda hisoblab chiqarilishi belgilanmoqda.

Qonunning qabul qilinishi ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada ishlab chiqarish hajmi, tayyor mahsulot ulushi hamda eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Qonun senatorlar tomonidan ma’qullandi.

Senatning ellik to‘qqizinchi yalpi majlisida “O‘zbekiston Respublikasining Soliq hamda Bojxona kodekslariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun ko‘rib chiqildi.

Qonun bilan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimlarining texnik vositalarini respublika hududiga olib kirishda telekommunikatsiyalar operatorlariga soliq va bojxona imtiyozlari berilmoqda.

Soliq kodeksiga kiritilayotgan qo‘shimchaga muvofiq endilikda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan respublika hududiga olib kiriladigan tezkor qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalari soliq solishdan ozod qilinadi va mazkur texnik vositalar soliq solish obyekti hisoblanmaydi.

Bundan tashqari, Bojxona kodeksiga yuqorida ko‘rsatilgan texnik vositalarni bojxona bojini to‘lashdan ozod qilish tarzida tarif imtiyozlari berilishini nazarda tutuvchi qo‘shimcha kiritilmoqda.

Shuningdek, harbiy xizmatni nazarda tutuvchi boshqa idoralar harbiy yuklar bojxona rasmiylashtiruvida bojxona yig‘imini to‘lashdan ozod qilinmoqda.

Senatorlar ta’kidlaganidek, qonun belgilangan soliq va bojxona imtiyozlaridan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimlarining texnik vositalarini respublika hududiga olib kirishda foydalanish tartibini yanada takomillashtirishga hamda tezkor-qidiruv tadbirlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokamadan so‘ng qonun senatorlar tomonidan ma’qullandi.

Shu bilan birga, Senatning navbatdagi yalpi majlisida “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga yer uchastkalaridan samarali foydalanish, sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda yerdan oqilona va samarali foydalanish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida aholining yerga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgardi.

Ammo sohada hanuz ayrim kamchiliklar saqlanib qolayotganligi qonunchilikni yanada takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirdi va shu maqsadda mazkur qonun ishlab chiqildi.

Qonun bilan amaliyotga bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda. Xususan, yer to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzganlik bilan bog‘liq qilmishlar uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda.

Yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish kabi jinoyatlar faqatgina prokuratura organlari tomonidan tergov qilinishi belgilanmoqda.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra bunday turdagi jinoyatlarni tergov qilish nafaqat prokuratura, balki ichki ishlar organlari tergovchilari tomonidan ham amalga oshirilar edi.

Iqtisodiy va Fuqarolik protsessual kodekslari o‘zboshimchalik bilan egallangan davlat egaligidagi yer uchastkalarini qaytarish hamda noqonuniy qurilmalarni buzib tashlashga oid ishlarni sudlarda ko‘rib chiqishning alohida tartibini belgilovchi normalar bilan to‘ldirilmoqda.

Shuningdek, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari fuqarolik va iqtisodiy sudlarga yer to‘g‘risidagi qonun buzilishi bilan bog‘liq da’vo ariza kiritishda davlat bojidan ozod etilishi belgilanmoqda.

Muhokama davomida qonunning qabul qilinishi yer uchastkalariga nisbatan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligi oshishiga, jinoyatlar bo‘yicha yetkazilgan zararning o‘z vaqtida undirilishiga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Qizg‘in muhokamadan so‘ng qonun senatorlar tomonidan ma’qullandi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik to‘qqizinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati
Axborot xizmati.

YUZMA-YUZ MULOQOTLAR XAYRIXOHLARIMIZ SAFINI KENGAYTIRMOQDA

ADOLAT SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI

Ayni kunlarda mamlakatimizning barcha hududida 27-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga bo‘lib o‘tadigan saylovoldi targ‘ibot va tashviqot ishlari qizg‘in pallaga kirdi. Xususan, deputatlikka nomzodlar saylovchilarni o‘z dasturlarida ilgari surilayotgan maqsad va vazifalar bilan yaqindan tanishtirmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan Qonunchilik palatasi hamda mahalliy Kengashlar deputatligi uchun ko‘rsatilgan nomzodlar ham hududlarda saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazmoqda. Ularda saylovchilar partiya Saylovoldi dasturida belgilangan muhim taklif va tashabbuslar bilan yaqindan tanishtirilmoqda.



Ana shunday targ‘ibot va tashviqot tadbirlarining dastlabkisi **Samarqand viloyati** saylovchilari bilan uyushtirildi. Unda Siyosiy Kengash raisi Robaxon Mahmudova, viloyat va mahalliy Kengashlar xodimlari, partiya faollari, deputatlikka nomzodlar, mahalla faollari, saylovda ilk bor qatnashayotgan yoshlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Partiya yetakchisi o‘z ma’ruzasida yangi Saylovoldi dasturida xalqimiz orzu-istaklari, fikr-mulohazalari, ko‘plab sohalarda rivojlanish istiqbollari qamrab olinganiga, har bir yo‘nalishda ilgari surilgan xalqchil takliflar partiyaning kelgusi besh yillikdagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishiga alohida to‘xtaldi.

Shundan so‘ng Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Muhammad Valiyev Saylovoldi dasturidagi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, partiya elektorati vakillarining ijtimoiy muhofazasi va xotin-qizlar mehnat huquqlarini himoya qilish, jamiyatdagi tenglikni ta’minlash hamda davlat boshqaruvining shaffofligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan qator g‘oya va tashabbuslar bilan saylovchilarni tanishtirdi.

Uchrashuvda so‘zga chiqqan tadbir ishtirokchilari ham partiya Saylovoldi dasturini qo‘llab-quvvatladi.

– Partiyamiz tomonidan ma’naviy taraqqiyotga erishish, mamlakatimizda ilm-fan, innovatsiyalar va ta’lim sohasining barqaror rivojini ta’minlashga qaratilgan g‘oyalarning ilgari surilgani men kabi barcha samarqandliklarni quvontirdi, – **dedi tadbirda so‘zga chiqqan partiya faoli Asqar Xoliqov.**

Partiya sun’iy intellekt asosida **“aqlli maktab”** dasturini ta’lim tizimiga joriy etishni ustuvor vazifalardan biri, deb biladi. Darhaqiqat, maktab ta’limi – kelajak asosi. Faqat zamonaviy ma’rifat, chuqur bilimgina bizni yorqin kelajakka boshlab boruvchi yo‘ldir. Shu sababli dasturdagi ta’lim sohasini isloh qilish taklifi ko‘pchilikka manzur bo‘ldi.

Adolatchilarning navbatdagi saylovoldi uchrashuvi **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** Nukus shahridagi qoraqalpoq etnoovulida bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, tuman va shaharlar Kengashlari deputatligiga ko‘rsatilgan nomzodlar yig‘ilganlarni partiya Saylovoldi dasturi bilan tanishtirdi.

Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Shaxnoza Abdiramanova saylovchilarni Saylovoldi dasturida ekologik muammolarni hal etish, bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarni birlashtirish, birinchi navbatda, ushbu muammolarning iqtisodiy jihatlariga alohida e’tibor qaratilganini ta’kidladi.



– Bugun barcha ekologik muammolarni va u bilan bog‘liq fuqarolar salomatligini himoya qilish masalalarini faqat Davlat budjetiga yuklash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shu bois biz **“Ekologiyani ifloslantiruvchi – kompensatsiya to‘lashi lozim”** degan prinsip tarafdorimiz, – **dedi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Shaxnoza Abdiramanova.**

Ta’kidlanganidek, partiya dasturida Orol mintaqasida yashovchi fuqarolarning taqdiri bilan chambarchas bog‘liq ekologik muammolarga ijobiy yechim topish masalalari ham ilgari surilgan. Xususan, Markaziy Osiyoda suv tanqisligining oldini olish maqsadida qo‘shni davlatlar bilan suv zaxirasini saqlash va kengaytirish bo‘yicha hamkorlikni kuchaytirish, **noqulay va samarasiz yerlarni** ishsiz odamlarga bo‘lib berish va moliyalashtirish orqali yashil o‘rmonzorlar barpo etish taklif qilinmoqda.

Samimiy muloqot ruhida bo‘lib o‘tgan uchrashuv yakunida partiya faollari hamda qator ishtirokchilar Saylovoldi dasturi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

– Uchrashuvda partiyamizning Saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan g‘oya va maqsadlar bilan atroflicha tanishish imkoniga ega bo‘ldik, – **dedi “Adolat” SDP Qoraqalpog‘iston Respublikasi kengashidagi “Ayollar qanoti” raisi Ulbosin Seytjanova.** – Ayniqsa, dasturning yettinchi yo‘nalishi bugungi kundagi dolzarb masala – ekologiya, atrof-muhitni himoya qilishga bag‘ishlangani diqqatga sazovor. Xususan, ushbu yo‘nalishda partiya Saylovoldi dasturida davlatning yer osti va yer usti zaxiralarini himoya qilish, tabiiy boyliklarni samarasiz qazib olishni cheklash choralari aks etgani e’tiborimizni tortdi.

Shu bilan birga, tadbirda so‘zga chiqqanlar ishtirokchilarni bo‘lajak saylovlarda partiyadan ko‘rsatilgan nomzodlarni qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi.

O‘zbekiston “Adolat” SDP faollarining **Toshkent shahri** saylovchilari bilan uchrashuvi Toshkent pediatriya tibbiyot institutida bo‘lib o‘tdi. Tadbirda ta’kidlanganidek, Saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan g‘oya va vazifalar “Adolat” partiyasining dasturiy maqsadlariga har jihatdan hamohang bo‘lib, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhasida adolat tamoyillarini barqaror ta’minlashni nazarda tutadi.

Saylovoldi dasturida partiya uchun tibbiyot sohasidagi birinchi galdagi vazifa sifatida tibbiyot xodimlarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ularning huquqlarini kafolatlash, olis va chekka hududlardagi oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarda tor soha mutaxassislari faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklif qilingan.

Qolaversa, partiya aholiga kafolatli tibbiy xizmat ko‘rsatish va tarmoqda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida **“Aqlli tibbiyot”** tizimining huquqiy asoslarini ishlab chiqib, sog‘liqni saqlash sohasini to‘liq raqamlashtirish, **“elektron poliklinika” va “yagona elektron anketa”** tizimlarini yo‘lga qo‘yishni muhim, deb hisoblaydi.

– Dasturdan o‘rin olgan eng muhim jihat, albatta, xalq salomatligi masalasidir. Xususan, partiya nodavlat tibbiyot tashkilotlarini tijorat tashkilotidan notijorat tashkilotiga o‘tkazish bo‘yicha amaliy choralarni ko‘rish taklifini ilgari surmoqda. Ya’ni partiya tibbiyot daromad olish manbaiga aylanmasligi tarafdori, – **deydi Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashi deputatligiga nomzod Luiza Hikmatova.** – Buning mexanizmlari, xususan, tibbiyot sug‘urtasini rivojlantirish esa ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilishi kerak bo‘ladi.

Partiya faollarining Toshkent viloyatidagi “Nurafshon business city” xiyobonida **“Teng imkoniyatlar va adolatli jamiyat sari!”** shiori ostida bo‘lib o‘tgan ommaviy tadbiri, nafaqat Toshkent viloyati aholisi, qolaversa, boshqa hudud saylovchilari ko‘nglidan ham chuqur joy egalladi.

Ommaviy tadbirda so‘zga chiqqanlar tomonidan partiyaning so‘nggi yillardagi samarali faoliyati va Saylovoldi dasturida ilgari surayotgan g‘oyalari haqida batafsil ma’lumot berildi. Jumladan, partiyaning asosiy maqsadi – xalqimiz uchun munosib, adolat va qonun ustuvor bo‘lgan jamiyat barpo etish ekanligi alohida ta’kidlandi.

– Partiyamiz dasturida deputatlarning saylovchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotini yo‘lga qo‘yish va muammolarga joyida yechim topish maqsadida **deputatlar ish vaqtining yarmini,** albatta, o‘z **saylovchilari oldida o‘tkazish**ini belgilovchi tartibni joriy etish taklif qilingan, – deydi **Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Behzod To‘xtamurodov.**

Umuman, o‘tkazilayotgan bu kabi ommaviy tadbirlar partiyaning saylovoldi faoliyatining muhim qismi, shu bilan bir qatorda, xalq bilan yaqinlashishning va birgalikda yangi o‘zgarishlarni amalga oshirishning huquqiy mexanizmi hamdir.

Shu nuqtayi nazardan, “Adolat” SDP bunday samarali targ‘ibot tadbirlarini mamlakatimizning boshqa viloyat, tuman va shaharlarida tizimli ravishda o‘tkazib kelmoqda. Ushbu tadbirlar orqali aholi orasida partiya g‘oyalarini yanada kengroq targ‘ib qilish, saylovlarning ahamiyatini oshirish va fuqarolarni saylov jarayoniga faol jalb etish maqsad qilingan.

Hududlarda bo‘lib o‘tayotgan ommaviy tadbirlar va uchrashuvlarda so‘zga chiqqanlar partiya Saylovoldi dasturida taklif etilayotgan ustuvor maqsad va g‘oyalar xalq farovonligi va Vatan ravnaqiga xizmat qilishini e’tirof etib, tadbir ishtirokchilarini joriy yilning 27-oktabr kuni bo‘lib o‘tadigan saylovlarda O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi va uning nomzodlarini qo‘llab-quvvatlashga chaqirishmoqda.

O‘zbekiston “Adolat” SDP Matbuot xizmati.

O‘ZBEKISTON “ADOLAT” SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

Mudofaa va xavfsizlik:

FAOLIYATGA TANQIDIY BAHO BERISH ORQALI YUQORI NATIJALARGA ERISHISH MUMKIN

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan milliy xavfsizlik kabi o‘ta muhim sohani qonun talablari asosida boshqarish samarasini oshirish mamlakat xavfsizligini ta’minlash va Qurolli Kuchlar salohiyatini mustahkamlash borasidagi strategik vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan bir qatorda, davlatimiz rahbari tomonidan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan majlislarida Mudofaa doktrinasi ijrosi ustidan doimiy ravishda parlament nazoratini amalga oshirish, Oliy Majlis palatalari majlislarida harbiy qurilish masalalarini muhokama qilish zarurligi ta’kidlangan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2020 – 2024-yillardagi faoliyatini Prezidentimizning harbiy qurilish masalalariga bag‘ishlangan ma’ruzalari va qarorlarida, shuningdek, 2020-yil 20-yanvarda bo‘lib o‘tgan IV chaqiriq Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig‘ilishidagi ma’ruzasida belgilangan vazifalar ijrosi mezoni orqali baholash maqsadga muvofiqdir.

Sarhisob

Qonun talablari asosida boshqarishni takomillashtirish – strategik vazifa

Mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonunlarning har jihatdan mukammal bo‘lishi aholi farovonligini oshirish, inson huquq va erkinliklarini ta’minlashga xizmat qiladi. Hisobot davrida qo‘mitamiz ko‘rib chiqadigan qonun loyihalari soni avvalgi yillardagiga qaraganda ancha ko‘paydi.

2020 – 2024-yillar davomida qo‘mita 81 ta qonun loyihasini quyi palata majlislarida ko‘rib chiqish uchun tayyorlashga mas’ul bo‘ldi. Masalan, 16 ta yaxlit qonun loyihasi, 55 ta amaldagi qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha hamda 10 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilishga doir qonun loyihalari shular jumlasidandir. Ulardan 69 tasi parlament tomonidan qabul qilingan bo‘lsa, 8 ta qonun loyihasi qo‘mitaning fikr-mulohazalari va tavsiyalarini inobatga olgan holda qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlariga qayta ko‘rib chiqish uchun qaytarildi yoki ular tomonidan chaqirib olindi, 3 tasi esa qayta ko‘rib chiqishdan olib tashlandi.

Ta’kidlash joizki, 2024-yilda qonun ijodkorligi jarayonini tashkil etishni takomillashtirish hisobiga qo‘mitamiz tomonidan bitta qonun loyihasini ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqish uchun tayyorlashga sarflangan vaqtni o‘rtacha 17 ish kunigacha (2022-yilda – o‘rtacha 40 ish kuni) qisqartirishga erishildi.

Qo‘mitamiz tomonidan tayyorlangan yaxlit qonunlar qatorida 2021-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim hududlarida favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibini belgilab beruvchi “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunni alohida ta’kidlash lozim. Zero, ushbu qonunda favqulodda holat joriy etish vaziyatlari, qo‘llaniladigan favqulodda choralar va vaqtinchalik cheklovlarning aniq ro‘yxati, shuningdek, favqulodda holat sharoitida ularni qo‘llash chegaralari belgilab berilgan. Shu bilan birga, favqulodda holatni ta’minlash bo‘yicha maxsus davlat organlarining vazifalari va funksiyalari hamda favqulodda holat sharoitida jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, mansabdor shaxslar huquqlarining kafolatlari mustahkamlab qo‘yildi.

2023-yil sentabr oyidan kuchga kirgan yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Qonun ham qo‘mitamiz tomonidan mutaxassislar bilan birgalikda maromiga yetkazildi. Hujjat bilan davlat organlarining davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilish sohasidagi vakolatlari belgilab berildi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, yuridik shaxslar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilishdagi ishtiroki masalalari tartibga solindi. Shaxslar va transport vositalarining davlat chegarasini kesib o‘tish tartibi, shaxslar, transport vositalari va tovarlarni davlat chegarasi orqali o‘tkazishni vaqtincha cheklash yoki to‘xtatib turish uchun asoslarning aniq ro‘yxati belgilandi. Harbiy xizmatchilar va xodimlarning davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilishda maxsus vositalar, qurol-yarog‘ va harbiy texnikadan foydalanishi masalalari qat’iy belgilandi.

2024-yil avgust oyida yangi tahrirdagi “Davlat sirlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, parlamentning yuqori palatasiga yuborildi. Senatning kecha bo‘lib o‘tgan majlisida ma’qullangan ushbu hujjat bilan ma’lumotlarni davlat sirlariga kiritishning huquqiy va tashkiliy asoslari belgilab berildi, davlat sirlaridan foydalanish va ularni himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlar tartibga solindi.

O‘tgan davrda qo‘mitamiz tomonidan “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”, “Yo‘l harakati to‘g‘risida”, “Probatsiya to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”, “Davlat mudofaa buyurtmasi to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar tayyorlandi.


Qo‘mita a’zolari tomonidan davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilish, favqulodda holat joriy etish hamda yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik masalalarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan 5 ta qonun loyihasini tayyorlashda qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanildi. E’tiborlisi, ana shunday qonun loyihalaridan biri “Mening fikrim” portali orqali fuqarolardan kelib tushgan takliflar asosida ishlab chiqilgan.

Parlament nazoratini amalga oshirishda samaradorlik

So‘nggi besh yilda qo‘mitamiz a’zolari o‘zining asosiy vazifasini, ya’ni qonun ijodkorligini amalga oshirish bilan birga ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan ta’sirchan parlament nazoratini ham olib bordi. Xususan, qo‘mitamiz tomonidan “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi qonunlar talablarini inobatga olgan holda hisobot davrida mamlakat mudofaasi va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi vazifalar ijrosini o‘rganish yuzasidan 53 ta nazorat-tahlil tadbiri o‘tkazildi.

Jumladan, qo‘mita yig‘ilishlarida davlat organlari rahbarlarining 17-marta axborotini eshitish, davlat organlari tomonidan qonun hujjatlari ijrosi holatini joylarga chiqib o‘rganish bo‘yicha 25 ta tadbir o‘tkazildi. Qo‘mita tashabbusi bilan 3-marta quyi palata majlislarida davlat organlari rahbarlarining axboroti eshitildi, ularga 8 ta parlament so‘rovi yuborildi.

Shu bilan birga, deputatlar tomonidan Janubi-G‘arbiy maxsus, Sharqiy, Shimoli-G‘arbiy va Markaziy harbiy okruglari misolida qo‘shinlarning jangovar shayligi hamda harbiy xizmatchilarning professional va axloqiy-ruhiy tayyorgarligini yaxshilash borasidagi ishlar joyiga chiqqan holda o‘rganildi.



Qo‘mitaning yig‘ilishlarida kuch tuzilmalari rahbarlarining budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish to‘g‘risidagi axborotini eshitish amaliyoti ilk bor joriy etildi. Bunda Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va ichki audit bo‘linmalari tomonidan o‘tkazilgan tekshiruvlar materiallarining dastlabki tahliliga alohida e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, qo‘mitaning nazorat-tahlil faoliyati doirasida fuqarolar tomonidan harbiy xizmatni o‘tash, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, muddatli harbiy xizmatni o‘tab qaytgan fuqarolar bandligini ta’minlash masalalari ham o‘rganildi.

Shuningdek, deputatlar tomonidan joylarga chiqqan holda “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”, “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar ijrosi o‘rganildi.

Yuqorida qayd etilgan nazorat-tahlil tadbirlari yakunlari bo‘yicha aniqlangan muammolarni hal etish va qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi qo‘mita va Qonunchilik palatasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

Harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va kuch ishlatar organlar faxriylaridan kelib tushgan murojaatlarda ko‘tarilgan muammolarni mas’ul idoralar bilan birgalikda o‘rganish va hal etish qo‘mita faoliyatining yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi.

Binobarin, 2021 – 2023-yillardagi Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilarining murojaatlari tahlili natijalariga ko‘ra vazirlik, Harbiy prokuratura rahbariyati, shuningdek, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) ishtirokidagi qo‘mita yig‘ilishida harbiy xizmatchilarning murojaatlarini ko‘rib chiqish va ularning huquqlari ishonchli himoyasini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqildi.

O‘tgan davrda qo‘mita tomonidan Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi va uning hududiy boshqarmalari bilan ham amaliy hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, nazorat-tahlil faoliyati sifatini oshirishda ularning imkoniyatlaridan foydalanildi.

Ekspertlar salohiyatidan foydalanish amaliyoti va tizimli yondashuv zarurati

O‘tgan chaqiriq mobaynida qo‘mita ilmiy-ekspert hamjamiyati bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatdi. Jumladan, muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan fuqarolar orasida qo‘mita tashabbusi bilan ilk bor “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan “O‘zbekiston yoshlari o‘zi, armiya va vatanparvarlik haqida” mavzuida turkum sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish tashkil etildi. Ularning natijalari qo‘mitaning qonun ijodkorligi va nazorat-tahlil faoliyati samaradorligini oshirishda foydalanildi.

Qo‘mita tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi, Bojxona instituti kabi oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari bilan samarali hamkorlik mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, kursant va tinglovchilarni parlament faoliyati bilan yaqindan tanishtirish, ularga yangi qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish hamda professor-o‘qituvchilar va tinglovchilar salohiyatidan qonun loyihalarini ishlab chiqish va nazorat-tahlil faoliyatini rejalashtirishda samarali foydalanish maqsadida qo‘mita a’zolari tomonidan ular bilan uchrashuvlar o‘tkazish amaliyoti joriy etildi.

Shu o‘rinda qo‘mitaning hisobot davridagi faoliyatiga tanqidiy baho berar ekanmiz, to‘liq foydalanilmagan imkoniyatlarni ham qayd etish lozim. Jumladan, qator sabablarga ko‘ra qo‘mita a’zolarining ayrim qonunchilik tashabbuslarini oxirigacha amalga oshirishga erishilmadi. Qabul qilingan qonunlar ijrosi nazoratida tizimli yondashuv talab etiladi. Mudofaa va xavfsizlik sohasini qonunchilik yo‘li bilan tartibga solish hamda parlament nazorati amaliyoti bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish uchun xalqaro hamkorlarning imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmadi.

Bugungi kun mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari salohiyatini kuchaytirishda parlamentning roli va mas’uliyatini yanada oshirish zarurati har qachongidan ham muhim ekanini ko‘rsatmoqda. Shu ma’noda, sohaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, xalq farovonligini yuksaltirish va jonajon Vatanimizni yanada rivojlantirishga munosib hissa qo‘shish ustuvor vazifamizga aylanmog‘i zarur.

Erkin SALIXOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi.

DOLZARB QONUNLAR KO‘RIB CHIQILDI

Kecha o‘z ishini boshlagan Oliy Majlis Senatining ellik to‘qqizinchi yalpi majlisining birinchi kunida qator dolzarb qonunlar ko‘rib chiqildi. Ularning mazmun-mohiyati va ahamiyati xususida senatorlar fikr bildirdi.

Munosabat

Bahodir TOJIYEV,
Oliy Majlis Senatining
Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi raisi:

– Keyingi yillarda yurtimizda ipakchilik sohasini rivojlantirish, tutzorlarni tashkil etish va ipak qurtini boqish orqali aholi bandligini ta’minlash hamda daromadlarini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar ro‘yobga chiqarilmoqda. Xususan, pillachilik bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar va tashkilotlar uchun qator soliq imtiyozlari berildi. Ana shu sa’y-harakatlar natijasida hozirgi paytda respublikamizda pillani qayta ishlovchi 71 ta, ipak qurti urug‘chiligi bo‘yicha 11 ta korxona va 16 ta tutchilik xo‘jaligi samarali faoliyat ko‘rsatib kelayotir.

Ammo bugungi shiddatli davrning o‘zi pilla yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, yangi korxonalarni ochish hisobiga sohadagi bandlikni oshirish va bozor mexanizmlarini joriy etish ishlarini tezlashtirish masalalarini oldimizga qo‘ymoqda.

Senatorlar tomonidan ma’qullangan “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 483-moddasiga ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishga qaratilgan qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun ana shu maqsadda ishlab chiqilgan.

Qonun bilan Soliq kodeksining aytib o‘tilgan moddasiga qator qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda:

jismoniy shaxslarning uy sharoitida pilla yetishtirish (kasanachilik) faoliyatidan olingan daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod qilinadi;

pilla yetishtiruvchi yuridik shaxslarning uy sharoitida pilla yetishtiruvchi kasanachilar mehnatiga haq to‘lashga sarflanadigan mablag‘i va bo‘shagan mablag‘lari kasanachilarni moddiy rag‘batlantirishga yo‘naltirish sharti bilan ijtimoiy soliqdan ozod etiladi;

pilla yetishtirish sohasida ozuqa bazasi sifatida foydalaniladigan tutzorlar bilan band bo‘lgan yer uchastkalari uchun yer solig‘i xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga nisbatan 0,1 koeffitsiyent qo‘llanilgan holda hisoblab chiqariladi.

Ushbu qonun kelgusida ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishga, ishlab chiqarish hajmini hamda tayyor mahsulotlar ulushini, shuningdek, ish bilan band bo‘lganlar sonini oshirishga xizmat qiladi.

Shuhrat CHO‘LLIYEV,
Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi o‘rinbosari:

– Ma’lumki, uzoq yillar davomida mamlakatimizda yer resurslariga oid bo‘lgan qonunchilikda ayrim bo‘shliqlar mavjudligi oqibatida yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallab olish va ularda noqonuniy qurilmalar qurish hamda yerlardan maqsadsiz foydalanish holatlari ko‘payib ketgan edi.

Davlatimiz rahbarining sohani tartibga solish hamda yerdan oqilona va samarali foydalanish bo‘yicha bergan topshiriqlari ijrosi doirasida muhim natijalarga erishildi. Hokimlarning yer ajratish vakolati bekor qilinib, yer uchastkalarini onlayn-auksion orqali ajratish tartibi joriy qilindi va nazorat mexanizmlari yanada kuchaytirildi.

Yaqinda o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida muhim qonun qabul qilinganidan ham xabaringiz bor.

Yalpi majlisda ko‘rib chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga yer uchastkalaridan samarali foydalanish, sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan esa aholi tomonidan uzoq yillardan buyon egallab kelingan, biroq kadastr hujjati bo‘lmagan yer uchastkalari va ularda qurilgan inshootlarga bo‘lgan huquqlar e’tirof etilmoqda.

Ammo bu bundan keyin ham yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallab olib, unda imoratlar qurish orqali keyinchalik ularni qonuniylashtirib olish mumkin degani emas.

Qonun bundan keyin shu kabi noqonuniy holatlarning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Mazkur qonun bilan Jinoyat hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Bu orqali amaldagi yer to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzganlik uchun belgilangan jazo choralari yanada og‘irlashtirilyapti.

Jinoyat-protsessual kodeksida yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish bilan bog‘liq jinoyatlar prokuratura organlarining tergoviga taalluqli ekanligi belgilanayotganini ham ta’kidlab o‘tish zarur.

Yana bir yangilik sifatida esa Iqtisodiy va Fuqarolik protsessual kodekslari sudlarda o‘zboshimchalik bilan egallangan davlat egaligidagi yer uchastkalarini qaytarish hamda noqonuniy qurilmalarni buzib tashlashga oid ishlarni ko‘rib chiqishning alohida tartibini belgilovchi boblar bilan to‘ldirilayotganini keltirish mumkin.

“Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilayotgan o‘zgartirishlarga ko‘ra esa mahalliy davlat hokimiyati organlari fuqarolik va iqtisodiy sudlarga yer to‘g‘risidagi qonun buzilishi bilan bog‘liq ariza kiritishda davlat bojidan ozod qilinishi belgilanyapti.

Qonunning amalga tatbiq etilishi yer uchastkalariga nisbatan sodir qilinayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, yetkazilgan zararni vaqtida undirish va noqonuniy qurilmalarni tezkorlik bilan bartaraf etish tizimi yaratilishiga zamin hozirlaydi.

Mahmudjon PARPIYEV,
Oliy Majlis Senati a’zosi:

– Yurtimizda ochiqlik va oshkoralikni ta’minlash, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, OAV faoliyatini rivojlantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Natijada keyingi yillarda telekommunikatsiya tarmoqlari rivojlantirilib, aholi, ayniqsa, chekka hududlarda istiqomat qiluvchi xalqimizga undan yanada qulayroq foydalanish imkoniyatlari yaratildi, internet xizmatlari narxi sezilarli darajada arzonlashtirildi.

Yalpi majlisda ma’qullangan “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi qonun sohada faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlariga qator imtiyozlar yaratib berishga yo‘naltirilgani bilan e’tiborlidir.

Ushbu qonun joriy yilning 30-mart kuni Senatning ellik birinchi yalpi majlisida ma’qullanib, imzolash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuborilgan edi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ushbu qonunni yanada takomillashtirish yuzasidan qator takliflar bildirildi. O‘tgan davrda u ushbu takliflar asosida yanada maromiga yetkazildi.

Xususan, telekommunikatsiyalar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu sohadagi vakolatlari belgilab berilmoqda. Ayni chog‘da Jahon savdo tashkilotiga kirish va a’zolik shartlariga muvofiq, telekommunikatsiya bozorida regulyatorlar (tartibga soluvchi organ) har qanday asosiy telekommunikatsiya xizmatlarini yetkazib beruvchilardan mustaqil bo‘lib, uning qarorlari barcha ishtirokchilarga teng va majburiy bo‘lishi ko‘zda tutilayotir.

Tartibga soluvchi organga esa quyidagi vakolatlar berilmoqda:

yuridik shaxslarning telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatini litsenziyalash, ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirish;

tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yoki holatlarda telekommunikatsiya infratuzilmalarini belgilangan tartibda cheklash yoki to‘xtatib turish;

telekommunikatsiyalar tarmoqlari va inshootlarini qurish uchun loyiha-smeta hujjatlarining ekspertizasini o‘tkazuvchi yuridik shaxslarni akkreditatsiya qilish;

telekommunikatsiyalar tarmoqlarini raqamlashtirish tizimini ishlab chiqish va foydalanuvchilar huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash;

Internet jahon axborot tarmog‘i milliy segmenti manzil maydonidan foydalanish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash;

ko‘rsatilayotgan xizmatlar me’yorlarga mosligi bo‘yicha monitoringni amalga oshirish.

Bu qonunning qabul qilinishi telekommunikatsiya infratuzilmasidan unumli foydalanish imkoniyatini yaratadi hamda Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish ishlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“Xalq so‘zi”.

INTELLEKTUAL MULK – KREATIV IQTISODIYOT ASOSI

Shu yil 3-oktabr kuni Prezidentimiz tomonidan “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi Qonun imzolandi. Mazkur hujjatga ko‘ra, kreativ iqtisodiyot – bu ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek, innovatsiyalarga hamda texnologiyalarga asoslangan inson salohiyati natijasida iqtisodiy qimmatga ega bo‘lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratishga qaratilgan iqtisodiyot tarmog‘i hisoblanadi.

Nuqtai nazar

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda iqtisodiyotdagi muhim o‘zgarishni ijodiy faoliyat natijasi bo‘lgan intellektual mulkning jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida asosiy o‘ringa ega bo‘lganligi bilan xarakterlash mumkin.

Binobarin, kreativ iqtisodiyot juda ko‘p jihatlari bilan intellektual mulk bilan bog‘liq sanaladi. Xususan, kreativ iqtisodiyotning asosiy prinsiplaridan biri sifatida ijod erkinligini ko‘rishimiz mumkin. Bu, avvalo, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 53-moddasida ifodalanganidek, har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi.

Bundan tashqari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 27-moddasiga ko‘ra, har bir inson jamiyatning madaniy hayotida erkin qatnashishga, san’atdan bahramand bo‘lishga, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish va uning samaralaridan foydalanish huquqiga ega.

Ma’lumotlarga ko‘ra kreativ sanoat orqali bugungi kunda yiliga 2,3 trillion AQSH dollari miqdorida daromad olinmoqda va yaqin 10 – 15 yilda ushbu sohaning dunyo YIMdagi miqdori 10 foizga yetishi taxmin qilinmoqda. Ta’kidlash kerak, ushbu kreativ sanoatning asosini intellektual mulk tashkil etadi. Xususan, “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasida kreativ industriyaning faoliyat yo‘nalishlari sifatida adabiy ijod, audiovizual san’at, ijrochilik san’ati, konsert-tomosha faoliyati, nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyat, tasviriy san’at kabi qator mualliflik va turdosh huquqlarning sohalari o‘rin egallagan.

Kreativ iqtisodiyot, asosan, taraqqiy topgan mamlakatlarda turli sohalarga imkoniyat bergan holda tez rivojlanmoqda. Sun’iy intellektdan keng foydalanish va uning rivoji kreativ industriyaning samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli ham kreativ iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida intellektual mulk natijasi hisoblangan dasturiy ta’minot mahsulotlari, ilmiy tadqiqot, amaliy-konstruktorlik ishlari natijalari hamda raqamlashtirish tashkil etmoqda.

Kelgusida raqamlashtirish va sun’iy intellekt iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy faktorlari sifatida belgilanmoqda. Fikrimizcha, ayni ushbu sohalar kelgusida kreativ iqtisodiyot tarmoq va yo‘nalishlarini tubdan o‘zgartirishi mumkin. Zero, sun’iy intellekt elementlari joriy etilayotgan tarmoqlar son va sifat jihatdan kengayib hamda takomillashib borayotgani hech kimga sir emas.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda kreativ xizmatlar eksportyorlarining top o‘nligidan Xitoy (250 mlrd. AQSH dollari), AQSH (46 mlrd. AQSH dollari), Italiya (39 mlrd. AQSH dollari), Fransiya (30 mlrd. AQSH dollari), Germaniya (29 mlrd. AQSH dollari), Hindiston (21 mlrd. AQSH dollari) va boshqa mamlakatlar o‘rin olgan. Mazkur xalqaro tashkilot kreativ industriyani ijodiyot va intellektual salohiyat natijasida yaratilgan hamda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni tijoratlashtirish sifatida xarakterlaydi.

Intellektual mulk faoliyati ham yaratish, muhofaza qilish va tijoratlashtirish kabi uch bosqichdan iborat hisoblanadi. Agar biz kreativ industriyani ijodiy faoliyat natijasida yaratilishi va amaliyotga joriy etilishi fakti bilan izohlasak, intellektual mulk sifatida ushbu ijodiy faoliyat natijasi huquqiy muhofazaga ham olinishi kerak bo‘ladi.

Ma’lumki, shu yil 2 – 4-oktabr kunlari Toshkent shahri kreativ iqtisodiyot bo‘yicha 4-Butunjahon konferensiyasiga mezbonlik qildi. Mazkur xalqaro forum ishida 80 dan ortiq mamlakatlardan kelgan 2 mingdan ziyod ishtirokchilar hamda nufuzli xalqaro tashkilotlar qatnashdi. Mazkur forumning asosiy mavzusi sun’iy intellektning keng joriy etilishi va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy hamda iqtisodiy muammolarni muhokama qilishga qaratildi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi Qonun bilan ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

– kreativ industriya sohalarida fuqarolarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;



– kreativ industriyani iqtisodiyotning faol tarmoqlaridan biriga aylantirish orqali kreativ mahsulotlar aylanmasini oshirish;

– kreativ industriya subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda teng imkoniyatlar yaratish;

– kreativ industriya sohalarini qo‘llab-quvvatlash orqali kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish;

– kreativ iqtisodiyot sohasida ilm-fan va ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash hamda kreativ g‘oyalarni va loyihalarni amalga oshirishda ko‘maklashish;

– kreativ industriya subyektlari uchun zarur infratuzilmani yaratish;

– kreativ mahsulotlar yaratishda ilm-fan va texnologiya yutuqlaridan va innovatsion yondashuvlardan foydalanilishini ta’minlash;

– mazkur sohadagi ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida kreativ industriya sohalarida ta’lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy ta’lim dasturlarini joriy etish;

– kreativ industriya subyektlarining ijodiy salohiyati va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha cheklovlarni bartaraf etish;

– milliy madaniyat va milliy brendlar xalqaro maydonda keng tanitilishini ta’minlash.

Ushbu keltirib o‘tilgan yo‘nalishlar Prezidentimizning 2022-yil 26-apreldagi “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan 2022 – 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasining maqsad va vazifalari bilan o‘zaro hamohangdir. Shuningdek, yuqoridagi qonun o‘zida kreativ industriya subyektlarining mol-mulkini himoya qilishni, intellektual mulk sohasiga oid tartib-taomillarni soddalashtirishni ham nazarda tutgan.

Kreativ iqtisodiyot hozirda madaniyat, san’at, mualliflik huquqi va boshqa shu kabi tarmoqlar faoliyatining asosiy negizi sifatida Butunjahon intellektual mulk tashkiloti, BMTning Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi, BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurgan. Zero, kreativ iqtisodiyot bu madaniyat, san’at, kino, musiqa, dizayn kabi intellektual mulk yo‘nalishlarga doir ilg‘or texnologik mahsulotlar va ijodni o‘zida ifodalagan soha sanaladi.


Kreativ iqtisodiyotning rivojlanishi uchun joy va mintaqa tanlanmasligi bugungi axborot taraqqiy etgan davrda hech kimga sir emas. Shu sababli ham O‘zbekistonda mazkur soha ravnaqiga yanada katta e’tibor qaratish va rag‘batlantirish orqali yangi ish joylari tashkil etishimiz mumkin. Bundan tashqari, mamlakatimiz madaniyat, san’at, hunarmandchilik, dizayn kabi ijodkorlik yo‘nalishlarida boy tarix va iste’dodlarga ega. Aynan ushbu sohalarni kreativ industriyaga keng yo‘naltirish orqali O‘zbekistonning YIMda kreativ iqtisodiyotning ulushini oshirish imkoniyati mavjud. Hatto iqtisodiy inqiroz paytida ham kreativ industriya o‘zining barqarorligini saqlab qoladi. Eng muhimi, ushbu “sanoat” yo‘nalishi ishchi yoki xodimni tanlamaydi, unda har kim o‘z iste’dodidan kelib chiqib ishtirok etish va daromad olish imkoniyatiga egadir.

Abdumo‘min YO‘LDOSHEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi kafedrasi mudiri o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

KONSTITUTSIYAVIY QADRIYAT VA PRINSIPLAR TALQINI

2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va qat’iy intilishining yaqqol namunasi bo‘ldi, desak, aslo mubolag‘a emas.

Yangi darslik



Darhaqiqat, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda milliy davlatchilik rivojining muhim bosqichiga xos bo‘lgan xalqchil taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy mexanizmlari belgilanishi barobarida davlat va jamiyat hayoti rivojining ustuvor prinsiplari qamrab olingan.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat institutiga “yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida yangi o‘quv dasturlari, darsliklar va boshqa qo‘llanmalarni tayyorlash bo‘yicha ilmiy-metodik chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish” vazifasi belgilangan.

Tajribali huquqshunos olim va mohir pedagog, yuridik fanlar doktori, professor Ozod Husanov tomonidan nashrga tayyorlanib, yaqinda chop etilgan “Konstitutsiyaviy huquq” fanidan oliy o‘quv yurtlari uchun darslik Prezidentimiz Farmonida belgilangan vazifalar ijrosiga qaratilgan.

Mazkur kitobda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdagi suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat prinsiplarini ilmiy anglash, shuningdek, yoshlar ongiga ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplarini singdirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlari, konstitutsiyaviy asoslarini o‘qitishga zamonaviy yondashuv aks etgan.

Akademik A. Saidov mas’ul muharrirligida nashr qilingan ushbu darslikda “Konstitutsiyaviy huquq” fani predmeti doirasiga kiruvchi mavzular yoritilgan bo‘lib, unda Asosiy Qonunimizga kiritilgan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar e’tiborga olingan.

2024/2025 o‘quv yili boshida qayta nashr etilgan mazkur darslikning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda avvalgi darslikdagi ayrim juz’iy kamchiliklar bartaraf qilinib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan inson huquqlari, jumladan, siyosiy huquqlar, prokuratura, advokaturaga oid mavzular yangitdan to‘ldirildi. Aralash saylov tizimiga kiritilgan o‘zgartirish, qo‘shimchalar, mahalliy hokimiyat faoliyatini kuchaytirishga tegishli yangiliklar (masalan, “mahalla yettiligi”) o‘z o‘rnini topdi.

Shu ma’noda, Bosh qomusimizda mustahkamlangan normalar hamda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan muhim hujjatlar ijrosi doirasida tayyorlangan “Konstitutsiyaviy huquq” darsligi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o‘tkazilgan tanlovda g‘olib topilishi hamda vazirlik tomonidan nashrga tavsiya etilib, qisqa muddatlarda chop qilinishi ayni muddao, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Darslik tushunarli, sodda tilda yozilgani, fanning eng zarur va birlamchi fundamental bilimlarni berishni nazarda tutgani, qamrovi fan dasturi doirasidan chiqib ketmagani bilan ham ajralib turadi. Shuningdek, uni o‘rganishga kirishgan o‘quvchini “Konstitutsiyaviy huquq” fani bo‘yicha mustaqil bilim olish va amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashga yo‘naltira olishi bilan ham ahamiyatlidir. Darslikda bugun mamlakatimizda olib borilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar, xususan, davlat funksiyalarining zamon talablariga mos o‘zgarib borishi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning mas’uliyati kuchaytirilishi kabi qator demokratik yangilanishlarga alohida urg‘u berilgan.

Darslik, asosan, oliy o‘quv yurti talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, undan barcha ta’lim turi va bosqichlarida Konstitutsiyani o‘rganishda muhim qo‘llanma sifatida foydalanish mumkin.

Abdumannob RAHIMOV,
Akmal RAHMONOV,
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining sudyalari, yuridik fanlar nomzodlari.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozoroc.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 05.30 Topshirildi — 05.45 1 2 3 4 5 6